

## O'ZBEK XALQI AJDODLARINING MUSIQA NAMUNALARI

**Xamidov Shirmamat O'roqovich**

*Termiz Davlat Universiteti Musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek halqining musiqa madaniyati uzoq o'tmishda ma'lum bo'lganligi va shu davrlarda yashab ijod qilgan allomalar ularning asarlari haqida so'z yuritilgan. Ayniqsa axeologik qazilmalar, qoya toshlardagi va devoriy tasvirlar, tarixiy va ilmiy xujjatlar, adabiy manba'lar, minatyura asarlaridan musiqiy choig'ular uzoq o'tmishda mavjud bo'lgani va turli xalqlar o'rtsida muloqot vositasi bo'lganligini isbotlaydigan manba'lar berilgan*

**Kalit So'zlar:** *Minatyura, nay, ud, tor, lutnya, arfa, sibizg'a, fleyta, yakka navoz, ansambl, raqs, vocal cholg'u, karnay, sutny, nog'or, chindovul, dutor, rubob, qobuz, g'ijjak, shemne, ruxavza, kungura, qonun, sibizg'a, fleyta,*

**Аннотация:** *В данной статье рассказывается о том, что музыкальная культура узбекского народа была известна в далеком прошлом и о тайнах художников, живших и творивших в те времена. В частности, археологические раскопки, наскальные и фресковые изображения, исторические и научные документы, литературные источники, миниатюрные произведения свидетельствуют о том, что музыкальные инструменты существовали в далеком прошлом и являлись средством общения между разными народами.*

**Ключевые слова:** *Миниатюра, най, уд, тар, лутня, гусли, флейта, флейта, сольная мелодия, ансамбль, танец, вокальный инструмент, труба, сутны, барабан, чиндовул, дотор, рубоб, кабуз, г'ийжак, шемне, рукшавза, кунгура, право, сибизга, флейта,*

**Annotation:** *This article talks about the fact that the musical culture of the Uzbek people was known in the distant past and about the secrets of the artists who lived and created in those times. In particular, archeological excavations, rock and mural images, historical and scientific documents, literary sources, and miniature works provide evidence that musical instruments existed in the distant past and were a means of communication between different peoples.*

**Keywords:** *Miniature, ud, tar, lutnya, harp, flute, flute, solo melody, ensemble, dance, vocal instrument, trumpet, sutny, drum, chindovul, dutor, rubob, kabuz, g 'ijjak, shemne, ruxavza, kungura, law, sibizga, flute,*

### KIRISH

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega. Bu haqda asrlar davomida sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan xalq og'zaki ijodiyotidagi professional musiqa darak beradi. O'zbek xalqi ajdodlarining musiqa namunalari O'rta Osiyo hududida yashagan qardosh xalqlar, birinchi navbatda, tojik xalqi1 ijodi bilan mustahkam bog'liq. O'rta Osiyo

xalqlari hayotida tarixiy rivojlanish taxminan bizning eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikdan boshlanadi. O'rta Osiyo xalqlari va ularning olib boradigan faoliyati va hayoti to'g'risida sharq mamlakatlari yodgorligi «Avesto» kitobida batafeil yoritib berilgan.

Avestoda xalq poetik va musiqa san'atining mushtarakligi va shu asosda yaratilgan, musiqiy poetik asarlar, shuningdek, O'rta Osiyo xalqlarining turmushi, ular olib borayotgan siyosat, ularning urf-odatlarini, o'tkaziladigan to'y-tomoshalar va boshqalar arxeologik namunalarda o'z aksini topgan. Dehqonlar o'troqlashib, oila, jamoa tashkil etilishi va sinfiy jamiyatga o'tilishi, asta-sekinlik bilan davlatlar birlashuvi natijalari, epic qo'shiqlar paydo bo'lishi, devoriy naqshlar bundan dalolat beradi.

O'rta Osiyo xalqlarining ozodlik uchun mardonavor kurashlari, bu yo'lda o'z jonini urbon qilgan eho'pon Shiroqning jasorati tarixda o'z aksini topgan. Shuningdek, sharq xalqlarining bebaho asari Firdavsiyning «Shohnoma»si, jumladan, qahramonlar Rustam, Suxrob, Siyovushlarning jasorati, go'zallik ramzi bo'lmish malika Taxminaning muhabbati va boshqa qahramonlar to'g'risida afsonalar yaratildi.

Tarixiy manba hisoblanmish «Avesto»da xalqning qo'shiq aytishi va turli marosimlarda jamoa bo'lib qo'shiq ijro etishi, xalqning olovga sig'inib, olov atrofida qo'shiq aytib, raqsga tushishi ko'rsatilgan. Shuningdek, XII-XV asr mutafakkirlarining aytishlaricha, xalqning asosiy bayrami bo'lmish «Navro'z»da o'tkaziladigan turli urf-odatlar, qo'shiqlarning ijro etilishi, raqsga tushishi, xalqning musiqaga bo'lgan munosabati yaqqol ko'rsatilgan<sup>3</sup>. Oddiy xalqning musiqaga bo'lgan munosabati, keyinchalik musiqaning rivojlanishi, ilmiy, nazariy tadqiqot o'zo'rnini asrlar davomida quyidagi asarlarda topdi:

«Musiqa haqida risola» – Muhammad Nishopuriy,

«Risolatush-Sharafiya» – Safiuddin Urtnaviy,

«Durat-ut toj-li g'urrat yat-Diboj» – Qutbiddin Sheroziy,

«Nafois-ul-funun», «Li-arois-ulyunon» – Mahmud Omuliy,

«Maholid-ul-ulum» – Mirsaid Alin Jurjoniy,

«Maqosid-ul-alxon» – Abdulqodir Marog'iy,

«Musiqa haqida risola» A. Jomiy,

«Kitob-ul musiqa ul-kabir» al-Forobiy,

«Donishnoma» Ibn Sino,

«Musiqa haqida risola» Kamoliddin Binoiy,

«Musiqaning ilmiy va amaliy qonuni», Mahmud Husayniy,

«Musiqa haqida risolalar» Najmiddin Kavkabi, Darvesh Ali Changiy va boshqalar shular jumlasidandir.

Qadimgi O'rta Osiyodagi k'pgina xususiyatlarning mavjudligi ko'rsatib o'tilgan. Bu ma'lumotlar devoriy naqshlarda, turli haykallarda o'z aksini topgan. Sharq xalqlari orasida eramizning IV asridan boshlab siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Quldorlik asta-sekin feodal tuzum bilan almashdi. Sharq mamlakatlari ikki guruhga bo'linib, turk va Sharqiy Eron xalqlariga qo'shilib yashash jarayoni boshlandi.

Qadimgi Panjakent shahridan topilgan yorqin naqshlarda aks ettirilgan turii ziyofat va marosimlar, kumush laganda ov manzarasi, raqqosaning haykali shundan dalolat beradiki, qadimgi O'rta Osiyo xalqlari orasida musiqa madaniyati yuqori baholangan<sup>4</sup>. Musiqa merosida mahalliy turklarning ijro etgan ko'nikmalari to'g'risida «Kitobi Qo'rqu't<sup>5</sup> ko'rsatilgan. Ushbu kitob turli xalqlarining yaratilgan qahramonlik eposlarining rivojlanishiga turtki bo'lgan.

VIII-IX asrlarda O'rta Osiyo xalqlari orasida islom dini qabul qilinishi munosabati bilan mahalliy xalqlar shu diniy e'tiqod bilan yashay boshladi. Ayniqsa, shu davrda xalq orasida aholining mehnatkash tabaqalari manfaatlarini ifodalovchi Muqanna rahbarligida «Oq kiyimlilar» harakati tarixda asosiy o'rin egalladi. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyoda arab hukmronligi davri boshlandi. Mahalliy aholining va arab xalqining musiqa san'ati birlashib, ko'proq mahalliy musiqachilar arab musiqasini o'rganib, shu zayl yangi asarlar yaratildi. A.Mahoniyning «Qo'shiqlar Kitobi» asariga murojaat qilganda quyidagi ma'lumotlaiga ega bo'lamiz: ya'ni birinchi arab qo'shiqchisi Musadjik O'rta Osiyoda bo'lib, turli kuylarni tanlab oladi va ular asosida qo'shiqlar ijrosi trzimini yaratdi.

O'rta Osiyolik qo'shiqchilardan o'rgangan mashhur hofiz ibn Muhriz arab baytlarini maromiga yetkazib kuylagan<sup>6</sup>. O'rta Osiyo xalqlarining rivojlanishi Somoniylar sullasi (IX asr) bilan bog'liq. Somoniylar sulolasining hukmdori Ismoil Somoniy o'z davrida madaniyat va san'at sohasiga katta e'tibor berib, Buxoro shahrini madaniyat, san'at va iqtisod markazi deb tayinlagan. Shoirlar va musiqachilar, barcha madaniyat va san'at ahli ijodi uchun sharoit yaratib bergan. Bu davrda mashhur matematik va astronom Ahmad Farg'oniy, olim, algebra fanining asoschisi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, sharqning taniqli faylasufi, yirik olim, musiqashunos, asarlari keyinchalik musiqa sohasida barcha asarlar uchun asos bo'lgan al-Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, olim va tibbiyot fanining asoschisi Ibn Sino, sharq klassik adabiyotining asoschisi A.Rudakiy, mashhur shoir A.Firdavsiy ijod qilib, o'sha davrdagi musiqa madaniyati, adabiyot va san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

IX asrda Buxoro shahriga turli sharq mamlakatlaridan yirik shoir, xonandalar, sozandalar, raqqoslar kelib, shoh saroyida yashab ijod qilgan. Saroy shoirlar va musiqachilarning ijodida yangi asarlar yaratish g'oyasi paydo bo'ladi. Ayniqsa saroy xodimlari, hukmron shaxslarni maqtaydigan va shataflaydigan mavzulardan iborat qasidalar alohida e'tiborga ega bo'ldi.

Qasidaning muqaddima qismiga (nasib) cholg'u asbobi jo'r bo'lar edi. Keyinchalik nasibdan musiqali poetik janr - g'azal yaratildi. Qasida bilan bir qatorda hajviy qo'shiqlar (amaldor shaxslarning salbiy xislatlari: xasislik, pastkashlik, ikki yuzlamachilik tomonlarini she'rda ta'rif etish) vujudga keldi. Ushbu qo'shiqlar ko'proq omma orasida keng tarqaldi. Hajviy qo'shiqlar X asrning mashhur shoiri Abu Abdullo Rudakiy ijodida o'rin olgan. Shoir asarlarida ko'proq insoniylik xususiyatlari tarannum etilib, insoniyat erkinlikka, go'zallikka da'vat etilgan.

Saroy hayoti, to'y-u tomoshalar hamda xalqning qahramonlik harakati sharqning buyuk shoiri Abulqosim Firdavsiyning shoh asari bo'lmish «Shohnoma» da ko'rsatilgan. Firdavsiy bu asarni

30 yil davomida yaratgan bo'lib, unda xalqning hayoti va turmushini xalq orasidan yetishib chiqqan qahramonlar - Rustam, Suxrob, Siyovush, Eraj orqali, go'zallik, muhabbat timsoli esa ayollar obrazi - Taxmina, Sudobalar orqali aks ettirgan. Firdavsiy «Shohnoma» asarida o'sha davr musiqasi va musiqa asboblari to'g'risida ma'lumot bergan. Torli va puflab chalinuvchi (nay, arfa, ud) musiqa asboblari to'g'risida yozgan.

Al-Forobiyning ham musiqa sohasida qilingan ishlari bebahodir. Ayniqsa, «Kitob-ul-musiqa-ul kabir» asarida tovushning paydo bo'iishidan tortib, usul, interval, uch tovushliklar (musiqa savodining turli qonun va qoidalari) to'g'risida tovushlarining xarakteriga ko'ra musiqa asboblari va ular to'g'risida ma'lumot beradi.

Janglarga mo'ljallangan cholg'u asboblari ham mavjud bo'lib, ularning ovozi baland va keskin, ziyofat va raqslar uchun, to'y va quvnoq yig'ilishlar uchun, muhabbat qo'shiqlari uchun maxsus turlari bor, ayrimlarining tovushi keskin va xazin bo'ladi: bir so'z bilan aytganda, ularning turi juda ko'p.

Musiqa asboblari to'g'risida sharq musiqashunosi, yirik olim, XVII asrning mutafakkiri Darvesh Ali Changiy o'zining asarida keng ma'lumot berib, ud musiqa asbobini barcha musiqa asboblarining podshohi deb ta'riflagan.

X asr oxirida turkiy qabilalar va mahalliy davlatlar o'rtasida shiddatli kurash natijasida mamlakatda keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Somoniylar hukmronligiga barham berilib, taxt Sulton Mahmud G'aznaviy qo'lga o'tdi. XI asrning mashhur asari «Qobusnoma» ijod qilinib, bebaho yodgorlikka aylandi. Fors tili bilan bir qatorda turkiy til barqaror bo'lib, ko'p asrlar davomida shu tillarda asarlar yaratilgan.

XI asrda turkiy tilda so'ziashadigan xalqlarning mahalliy aholi bilan aralashib yashash jarayoni boshlandi. XIII asr musiqa madaniyatida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. To'xtovsiz urashlar, mahalliy xalqning o'zaro nizolari, ularning madaniyati, taraqqiyotiga halal yetkazgan bo'lsa-da, musiqa madaniyatiga ko'p hissasini qo'shgan Safiuddin Abulmo'min Urmaviy va uning shoh asarlari «Risalat ush-Sharafiya», «Kitobul-advor» shu davrda yaratildi (bu asarlar to'g'risida Unnaviy hayoti va ijodi qismida batafsil ma'lumot beriladi).

XIV asrning ikkinchi yarmida madaniyat va san'atda yangi yuksalish boshlandi. emuriylar hukmronligida O'rta Osiyo juda katta tashqi mavqega ega bo'ldi. Me'tiorchilik san'ati rivojlandi, shaharlar paydo bo'ldi, obodonlashtirish ishlari olib borildi. Ayniqsa, O'sh shahri, «Kesh» (Shahrisabz) da ulkan qurilishlar paydo bo'ldi. Xuroson, Eron va Arab mamlakatlaridan turli sozanda, xonanda, shoir va ijodkorlar ahlini Amir Temur o'z saroyiga keltirib, madaniyat va san'at markaziga aylantirdi. Bu ma'lumotlar tarixiy manbalarda zikr etilgan bo'lib, bu to'g'risida hofizi Abro' quyidagicha yozadi: «Xushovoz hofizlar va sozandalar esa Fors namunalari, arab ohanglari, turkiy an'analar, mo'g'ul ovozlari, xitoyliklar qonunlari, oltoyhklar o'lchovlari asosida ko'p qo'shiq aytar edilar». «Zafarnoma»

muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy o'z asarida hunarmandlarning san'ati xilma-xilligi, ashula (musiqa), so'z va raqsning mushtarakligini ko'rsatib o'tadi. Keyinchalik XV

asrga kehi madaniyat va san'at markazi Hirot shahriga ko'chdi. Ayniqsa, temuriylardan Mirzo Ulug'bek saroyida musiqa madaniyati juda rivojlandi.

XVII-XV asrlarda feodal tuzum tarqoqligi kuchaydi. Alohida xonliklar (Buxoro, Xiva, Qo'qon) paydo bo'lib, o'zbek musiqa madaniyatiga katta ta'sir o'tkazadi. O'zbek xonlari saroyida musiqiy hayot rivojlanadi. Temuriylar davrida bo'lgan an'analar xonlar davrida ham davom etib keladi, ayniqsa, tojik va o'zbek xalqining aralash musiqali poetik yo'nalishi an'ana tarzida yanada rivojlandi.

XVI asr musiqa ilmi Najmiddin Kavkabiylar Buxoriy nomi bilan bog'liq. Uning musiqa haqida risolasi keyinchalik barcha san'at ahli uchun musiqiy qo'llanmaga aylangan edi. XVI asrda Darvesh Ali Changiy nomi san'atsevar xalq orasida mashhur bo'lgan. Boshqa muailiflardan farqli o'laroq Darvesh Ali Changiy o'z risolasida musiqa san'atiga oid fikrlarida faqatgina musiqa nazariyasiga to'xtalib o'tmay, balki o'z davrida yashab ijod qilgan bir qator musiqachilar hayoti va ijodi to'g'risida ham ma'lumot beradi. Darvesh Ali Changiy risolasida "bayoz"lar to'g'risida so'z yuritiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev K. «Nodir topilma» O'zbekiston madaniyati, 23 oktyabr:1973 y.
2. «Zamonaviy Ozarbayjon musiqa cholg'ulari» 1960 y.
3. Abdullayev S. «Qonun» darslik, A. Qodiriy nashriyoti, Toshkent., 2004 y.
4. Avedova N.A. «Iskusstvo oformleniya uzbekskix muzkalnix instrumentov» Toshkent «San'at» nashriyoti. 1959 y.
5. II. «Musiqa lug'ati» Toshkent «San'at» nashriyoti. 1997 y.
6. Akbarov Ik. «Doira ohanglari» Toshkent .1952 y.
7. Alimbayeva K. Axmedov M. «O'zbek xalq sozandalari» Toshkent. 1959 y.
8. Asqarov A. «O'zbekiston xalqlari tarixi» Toshkent. «Fan». 1992 y.
9. Bajenova «Pedagogik izlanish» Toshkent., «O'qituvchi» 1990 y.
10. Belyayev V. «Muzkalnoye instrument Uzbekistana» Moskva. 1933 g.
11. МУСТАЕВ, Р. Д., УБАЙДУЛЛАЕВ, С. С., & Носирхонзода, А. Н. РОЛЬ СЕМЬИ, ОБЩИНЫ И ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У МОЛОДЕЖИ. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 71.
12. МУСТАЕВ, Р., ХАСАНОВ, Н., УБАЙДУЛЛАЕВ, С., & АЛИНАЗАРОВ, Н. В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМ ДУХЕ. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО "Издательство Молодой ученый", (2), 458-459.
13. Мустаев, Р. Д., Хасанов, Н. Х., Убайдуллаев, С. С., & Алиназаров, Н. Н. (2023). ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОЕННЫХ КОМИТЕТОВ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Мировая наука, (1 (70)), 115-119.

14. Мустаев, Р. Д. (2023). ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА ПАТРИОТИЗМ ВО ВЗГЛЯДАХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 252-262.
15. Damirovich, M. R., Nurmuhammad, X., Saydaliyevich, U. S., & Nosirxonzoda, A. N. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI. *PEDAGOG*, 1(4), 1411-1414.
16. Мустаев Р.Д. ИЗУЧЕНИЕ РЕЛЬЕФА МЕСТНОСТИ ПО КАРТЕ. *IJODKOR O'QITUVCHI*. 2022 Nov 26;2(24):100-21.
17. Мустаев, Р. Д., & Юсупов, Ш. Б. (2022). ТОПОГРАФИК ХАРИТА ҲАҚИДА ТУШУНЧА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 900-904.
18. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). POSITIONING NAVIGATION FROM SATELLITES TARGETING WITH TOOLS. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 978-983.
19. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). JOY TURLARI VA ULARNING TAKTIK XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(3), 1027-1032.
20. Мустаев, Р. Д. (2022). ИЗМЕРЕНИЕ УГЛОВ И РАССТОЯНИЙ НА МЕСТНОСТИ БЕЗ КАРТЫ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(10), 79-83.
21. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.
22. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOQ 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.